

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

IJODIY PARVOZ



O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat institutining
ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy,
ijtimoiy gazetasi

2024-yil yanvar

№ 1 (128)



dsmi.uz



nashriyot@dsmi.uz



t.me/dsmi_uz

Munosabat

YOSHLARGA, MADANIYAT VA MA'NAVIYATGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR



Eldor SHERMONOV,
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
REKTORI V.B.,
PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

Yakunlangan yil mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida katta o'zgarishlarga boy yil bo'ldi. Hammamiz ko'rib-bilib turibmiz, Vatanimizda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy sohalarida ko'plab yutuqlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy 2024-yil mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”, deb nomlanishi esa kelajakka bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamladi. Yil boshidan yanada katta maqsadlarni, Vatanimiz rivoji hamda xalqimiz farovonligiga xizmat qiluvchi yangi, kreativ tashabbuslarni o'z oldimizga belgilab oldik.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yakunlangan yilning 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi ijtimoiy hayotimizda katta voqelikka aylandi. Bu bejiz emas, albatta.

Muayyan sohaga e'tibor qaratishda mustahkam iqtisodiy asos muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyatga ustuvor masalalar sifatida qaralib, o'tgan 2023-yilda ijtimoiy sohaga eng ko'p – 134 trillion so'm mablag' sarflandi. Bu 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir.

Yana bir e'tiborli holat. Ayniqsa, so'nggi yetti yil ichida yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularni qo'llab-quvvatlash borasida amaliyotga tatbiq etilayotgan loyihalar yangi bosqichga ko'tarilayotganligini bugun har bir yosh o'z hayotida his etmoqda.

Prezidentimiz ham mazkur anjumanda **“Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”**, – deya alohida ta'kidlab o'tdi.



Donolar so'zlaydi...

Aql qo'ydir,
nafs bo'ri,
iymon esa cho'pon.
Agar iymon kuchli
bo'lmasa,
nafs aqlni yeydi.

Jaloliddin RUMIY

Vatanparvarlik – yolgiz
o'z vataniga mehr qo'yishdan
iboratgina emas. Bu juda
katta his... Bu – vatan bilan
o'zini bir butun deb bilish,
uning yaxshi-yomon kunlarida
asqatish demakdir.

Lev TOLSTOY

Odamlarning seni
bilmaganligiga
xafa bo'lma, balki
o'zing odamlarni
bilmaganliging uchun
xafa bo'l.

KONFUTSIY

Bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni



YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – qudratimiz, g'ururimiz va sadoqatimiz timsolidir!

Mamlakatimizda davlatimiz mustaqilligi hamda xalqimizning tinchligini saqlash borasida Qurolli kuchlarimizni takomillashtirish, jumladan, mudofaa sohasini zamon talablari darajasida rivojlantirishga doir qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida”gi qonunda “O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish huquqiga ega” deb qonuniy jihatdan mustahkamlandi. 1991-yil 6-sentyabr – istiqlolning beshinchi kunida tarixda ilk bor O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. 1992-yil 14-yanvar kuni esa mamlakatimiz hududidagi barcha Qurolli kuchlarni O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. O'tgan davrda Qurolli kuchlarimizni shakllantirish jarayoniga davlat qurilishining g'oyat muhim, uzviy bir qismi sifatida qaraldi.

Jahon tamadduniga bemisl hissa qo'shgan turkiy zamindan ko'plab mohir sarkardalar,

harbiylar etishib chiqqan. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkarda bobolarimiz o'z zamonasida nafaqat odil hukmdor, ayni chog'da, engilmas qo'shinlarning qo'mondonlari ham bo'lishgan. Ular qo'shinning yuksak jangovar holatini ta'minlash bo'yicha juda ko'p ibratli ishlarni amalga oshirishgan.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar tufayli tarixan qisqa davrda mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan, tezkor va ixcham milliy armiya tashkil etildi.

Eng muhimi, o'tgan davrda milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan chinakam jasorat va matonat maktabiga aylandi.



YOSHLARGA, MADANIYAT VA MA'NAVIYATGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR

1 Darhaqiqat, so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohalarida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi.

“Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”gi qonun qabul qilingani soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi. 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi.

Eng muhimi, butun xalqimiz, ayniqsa yoshlar manfaatiga xizmat qiladigan bunday ezgu va samarali ishlar joriy yilda ham davom ettiriladi. Jumladan, ta'lim tizimiga qaratilayotgan g'amxo'rlik izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta'minlanishi, xususan, qiz bolalarning o'qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekaniga alohida e'tibor qaratiladi.

Teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi pesalar uchun ijodiy buyurtma berish,

ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejisyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish kabilar nazarda tutiladi.

Korxona va muassasalarda oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo'lga qo'yiladi.

Shubhasiz, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda yurtimizdagi 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim. Ularda 4 mingga yaqin to'garak faoliyat ko'rsatmoqda, 120 mingdan ortiq yoshlar shug'ullanmoqda.

Lekin ayrim markazlar o'z binosiga ega emas, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj bor. Bu borada hokimlarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, shu yildan e'tiboran har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari bo'lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so'm yo'naltiriladi.

Maqom va baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi. Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo'shiqlari “oltin fond”ga yozib olindi. O'zbekiston Prezidentining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib etishga doir qaroriga ko'ra, jumladan,

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o'tkazish ko'zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Musiqa va raqs san'ati rivoji ham qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, “Bahor” raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san'at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansamblarining xorijga gastrol safarlari ko'paytiriladi. Musiqa va raqs san'ati masalalarini ilmiy o'rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko'paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Joriy yilda kino sohasi yanada rivojlantiriladi. Bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o't-mishiga bag'ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek,

Biz ham institutimiz yoshlari yaratib berilayotgan yangi, keng ko'lamli imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda kasblarini puxta o'zlashtiradilar, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etadilar deya ishonib qolamiz. Zero, har bir mamlakatning kelajagi, avvalo, yoshlarning yuksak salohiyati va bilimi, komil tarbiyasi va intellektual taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir.

bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li haqida ko'p qismli animatsion filmlar yaratiladi.

Kinoni iqtisodiyot bilan uyg'un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etiladi.

Milliy seriallar bo'yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g'oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zaruratidan kelib chiqqan holda IT-park kabi erkin iqtisodiy zona – “Cinema park” tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

Yig'ilishda internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimligi ta'kidlanib, shu maqsadda adabiyot, kino, tarix, san'at, folklor namunalari qamrab olgan “O'zbek madaniyati” portalini yaratish vazifasi qo'yildi...

Mamnuniyat ila e'tirof etamiz, joriy yilda ham yurtimizda kelajak avlodni har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazishga qaratilgan bu kabi ezgu loyihalar juda ko'p. Shunga monand ravishda, shubhasiz, mamlakatimiz aholisining aksar qismini tashkil etuvchi yoshlarimiz ham yurt rivoji, mamlakat taraqqiyoti yo'lida o'zlarining aqlu zakovati, shijoati bilan kamarbasta bo'lishadi.

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI –

qudratimiz, g'ururimiz va sadoqatimiz timsolidir!

1 Farzandlarimizning harbiy xizmatga, boshqacha aytganda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilishi kuchaydi, Vatani himoyachisi bo'lish har bir yigitning ezgu maqsadiga aylandi.

Alohida mamnuniyat ila ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati tubdan o'zgardi.

Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi. Ushbu strategiya asosida Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash hamda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovarlik ruhini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, harbiy xizmatchilar, ayniqsa, komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyani yanada rivojlantirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi hamda harbiy okruglar boshqaruv apparatlari ofitserlarini, brigada komandirlari va ularning o'rinbosarlarini o'qitish bo'yicha Qurolli Kuchlar Akademiyasida yangi tizim yo'lga qo'yilib, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirish choralari ko'rilmogda.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha kompleks dasturlarni tayyorlashda bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojaralar xususiyatlari, qo'shinlarni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisobga olinmoqda. Bu borada eng zarur qurol-aslaha va anjomlarni sotib olish, ularni yangi jangovar tizimlar bilan birgalikda qo'llash va takomillashtirib borish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida. Shuningdek, harbiy qism va poligonlardagi



infratuzilma, askar va ofitserlarning xizmat sharoitlari tubdan yaxshilanmoqda. Qolaversa, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, aholi, birinchi navbatda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilyapti.

Harbiy sohada olib borilayotgan e'tiborga molik ishlar, keng ko'lamli islohotlar besamar ketmayotgani kishini quvontiradi, albatta. Xususan, O'zbekiston armiyasi 2023 yilda dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingida 145 davlat o'rtasida 62-o'rinni egalladi. Mazkur reyting “Global Firepower” xalqaro kompaniyasi tomonidan tuzib chiqildi.

“PwlrIdx” – kuch indeksi bo'yicha tuzilgan ushbu reytingning o'ziga xosligi shundaki, u qanchalik past bo'lsa, mamlakat shunchalik kuchli armiyaga ega

Abdug'ani SODIQOV

hisoblanadi. Hozircha hech bir davlat 0,0000 harbiy kuchning maksimal ko'rsatkichiga erishmagan. O'zbekiston 1,0692 indeksini olgan. Bu Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

O'tgan yilning oktyabr oyida AQShning “News & World Report” nashri ham o'z tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, mamlakatimiz armiya qudrati bo'yicha 87 davlat o'rtasida 18-o'rinni egalladi. Bu reytingda Rossiya, AQSh va Xitoy etakchilik qilgan. Qo'shnilarimizdan faqat Qozog'iston reytingga kiritilgan. Nashrning yozishicha, armiyalarning qudrati global so'rovda qatnashganlarning fikr-mulohazalari asosida baholangan.

Vakillarimiz, ayniqsa, keyingi yillarda o'tkazilayotgan ko'plab xalqaro miqyosdagi nufuzli harbiy musobaqalarda faxrli o'rinnlarni egallab kelishayotgani ham quvonarli hol. Jumladan, yurtimiz harbiylari Xalqaro armiya o'yinlari, “Kembriya patruli” va boshqa shu kabi yirik harbiy-sport musobaqalarida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.

Mamlakatimiz bugun taraqqiyot sari sobitqadamlik bilan olg'a intilmoqda, hayotimizning barcha jabhalarida mislsiz yutuqlar qo'lga kiritilyapti. Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda Vatanimiz sarhadlarini tunu kun sergaklik bilan qo'riqlayotgan harbiy xizmatchilarning munosib hissasi bor.

Shu kunlarda yurtimizning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32-yilligi hamda Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!” shiori ostida “Vatanparvarlik oyligi” ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilmoqda. Oylik doirasida “Vatanparvarlik karvoni” festivallari, davra suhbatlari, uchrashuvlar, turli viktorina va sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Harbiy xizmatchilar, soha faxriylari, elimizning taniqli kishilari, yoshlar ishtirokida o'tayotgan ushbu tadbirlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir” degan ezgu tamoyilning amaldagi yorqin ifodasi o'laroq namoyon bo'layotir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda milliy armiyamiz mamlakatimiz qudrati, yuksak g'urur va sadoqatimiz timsoliga aylanib ulgurgan Zotan, Vatanimiz, xalqimizga sadoqatli yigitlar xizmat qilayotgan Qurolli Kuchlarimiz mustaqilligimizning, tinch va osoyishta, farovon hayotimizning ishonchli qalqonidir.

YOSHLAR KAMOLOTIDA MAQOM SAN'ATINING O'RNI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda
“O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi
qarori imzolandi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli,
hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda
maxsus kafedra faoliyat ko'rsatib, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.
Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkil etilgan “Xalq
ildiyoti” fakulteti, milliy qo'shiqchilik ta'lim yo'nalishida ham milliy san'atimizni, xalq
og'zaki ijodini, maqom sirlarini o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin tutadi.

Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e'tirof etilgani buning yaqqol tasdig'idir.

Shuni ta'kidlash joizki, yoshlarning maqom san'ati bo'yicha tushunchasini oshirish, milliy madaniy merosimizni keng targ'ib qilish, kelgusi avlodlarimiz uchun asl holicha asrab-avaylashimiz va yetkazishimiz zarur. Respublikamizning chekka hududlaridagi musiqa maktablari uchun kadrlar tayyorlab, yoshlarimizning maqom san'ati bo'yicha qiziqishlarini oshirishimiz va ta'lim sifatini yuksaltirishimiz zarur.

Yurtimizning chekka hududlaridagi o'rta maxsus ta'lim maktablarida musiqa fanini chuqurroq o'rgatish zarur, yurtimizning chekka qishloqlaridagi maktablarda 1-sinfdan musiqani o'rgatib, katta sinflarga milliy musiqa fanini ta'lim uchun chuqurroq o'rgatilishi lozim. Milliy **“Shashmaqom”** turkumlari haqida tushunchani oshirish, milliy cholg'larni o'rgatishni yo'lga qo'yish zarur, shuningdek, maktablarda musiqa fani o'qituvchilarning oylik ish haqini oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu muhim tashabbuslarni yo'lga quyilsa, yoshlarimizning musiqa fani bo'yicha qiziqishlari oshishi hamda milliy san'atimiz yuksalishida, dunyoga tanitishga muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Qadim davrlardan buyon ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyati qaror topgan. Xalq og'zaki an'analari haqida musiqa san'ati bu haqida guvohlik beradi. Markaziy Osiyoning qadimiy musiqa madaniyati O'zbekiston hududida markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan,

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan eramizdan bir necha ming yillar avval boshlangan. Bular o'troq dehqonlar (sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazimiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalari edi. Ular haqidagi ma'lumotlar “Avesto”da uchraydi. Xalq poetik va musiqa sa'nati dastlab sinkretik holatda bo'lgani to'g'risida “Avesto” kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar ma'lumot beradi.

Musiqa san'ati eng qadimgi davrlardan

Markaziy Osiyo hududlarida yashab kelgan xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan. Uning yo'nalishlari, janrlari, shakllari o'zbek xalqining ajdodlari bo'lmish O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Eron va Sharqiy Turkiston hududida shakllanib rivojlanib kelgan, Xitoyning shimoliy chegaralaridan Yevropagacha cho'zilgan ulkan mintaqaning dasht va o'rmon tog'li o'lkalarida yashagan xalqlarda rivojlana boshlagan. Musiqa san'atini takomillashuvi shaharlar madaniy hayotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri va birinchi ming yillikka borib tarqaladi.

O'zbek musiqa san'atini rivojlanishiga va milliy merosimizni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga nuqsonlarsiz yetkazish uchun hissa qushgan san'atimizning buyuk arboblari Yunus Rajabiy milliy maqom yo'llarini notaga solgan va bastalagan O'zbekiston teleradiyosining maqom ansambli tashkilotchisi va badiy rahbari, yoshligidan shirali va ta'sirchan ovoza ega bo'lgan iste'dodli xonanda va mohir sozanda sifatida tanilgan. Uning unvonlari O'zbekiston xalq artisti, Fanlar akademiyasi akademigi, uning repertuaridan maqom parchalari, *“Girya”, “Ushshoq”, “Ko'cha bog'i”, “Eshvoy”, “Qalandariy”, “Gulyor-Shahnoz”, “Bayot”, “Dugohi”, “Husayniy”, “Chorgoh”, “Miskin”, “Nasrullohi” kabi ashula va kuy turkumlari o'rin olgan. U bir qancha o'zbek xalq kuy va ashularini qayta ishlab tiklagan: “Subhidam”, “Yolg'iz”, “Sayqal”, “Fig'on”, “Oraz” va boshqa ijrochilik faoliyatini bastakorlik bilan birgalikda olib borgan. Yunus Rajabiy o'zbek musiqali dramasiyning shakllanishiga katta hissa qo'shgan.*

“Maqom” arabcha – o'rin, joy, daraja va ko'plik shakli maqomot atamasi o'tmishda turli manoda ishlatilgan maqom-musiqa cholg'ularida kuy va ashularini tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni parda ma'nosida ishlatilgan. O'n ikki maqom tizimini bino qilish uchun, eng avvalo, poydevor yangilik ahamiyatiga ega mukammal pardalarni yuzaga keltirish (yoki ularni ilmiy asosda to'g'ri aniqlab olish) zarur bo'lgan, bu ilmiy vazifa musiqashunos olimlar zimmasiga yuklangan.

Sharq olimlari musiqaning ilmi ta'lim masalalarini o'rganishda qadimgi yunon nazariyotchilari, jumladan Pifagor ilimga tatbiq etgan sonli (matematik) usullarni keng qo'llagan edilar. Zero, shaklan hashamatli me'moriy inshootlarga qiyoslanishi mumkin bo'lgan mumtoz musiqa tizimlarini yuzaga keltirish uchun, eng avvalo, aniq o'lchovlar asosida ishlab chiqilgan musiqiy qurilmalar bo'lishi talab etilgan.

Sharq allomalari: Abu Nasir Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Mansur Ibn Zayla va Alisher Navoiy bobolarimiz musiqa san'atiga katta

hissa qo'shgan. Uning izdoshlari aksincha, mukammal tovush qatorlarni nazariy jihatdan ishlab chiqish borasida tadqiqot olib borgan edilar. Bu kabi nazariy holatlar esa, o'sha davr badiiy-estetik talablariga muvofiq bo'lib, musiqada ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagan. Yangi uslub negizidagi amalga oshirilgan ushbu uslubga berilgan dastlabki ta'rif quyidagicha: yangi uslub bu – kuy ohanglarning umumiy to'lqinsimon harakatida avj pardalarga (cho'qqiga) qarab yuksalish tamoyili, yetakchi o'rin tutgan musiqiy jarayondir.

Tabiiyki, Movarounnahr hududida tashkil topayotgan yangi uslub tarkibiga mafkura nuqtayi nazaridan ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan mahalliy musiqiy an'analari ham jalb etilgan. Musiqashunos olim A. Muhambetovning fikriga ko'ra, kuy nomli musiqiy namunalari turkiy xalqlarning islomga qadar madaniyatiga talluqli bo'lib, mazmunan qadimiy kosmologik qarashlarni aks ettiradi. Olima kuy ohanglari yo'nalishida yuqoriga ko'tarilish tamoyili yetakchi o'rin tutishini nazarda tutib, kelajakda uning (kuy) shakli tasavvuf g'oyasini ifoda etish uchun muhim qolip (andoza) bo'lib, xizmat qilganligini ta'kidlaydi.

Tasavvufda ma'naviy kamolot yo'lining turli bosqichlarni anglatgan maqom atamasi esa musiqa ilmi va amaliyotida asosan o'n to'rtinchi asrdan e'tiboran keng qo'llana boshlagan. Ayni paytda esa, ko'k kuy tushunchasi ham maqom istilohida juda yaqin yoki aynan uning ma'nosi o'rnida ham ishlatilgan. Chunki bu davrga kelib, mazkur atamalar o'zaro ma'nodosh bo'lib ketgan.

Maqomot tizimi – bu maqomchilik mumtoz an'alarini milliy musiqiy asosda rivojlantirilishi natijasida yuzaga kelgan buxoro shashmaqomiy, xorazm maqomlari va farg'ona-toshkent maqom yo'llarining majmuasidir. Bunda buxoro va xorazm maqomlari shashmaqom tizimi tarzida, ulardan farqli o'laroq farg'ona-toshkent maqom yo'llari esa, tarqoq tizimi shaklida namoyon bo'ladi.

O'zbek-tojik xalqlari mumtoz musiqasi “Shashmaqom” o'n yettinchi asr o'rtalarida buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat mahobatli turkum tarzida ifoda etilgan edi. Mazkur maqomlar quyidagicha nomlanadi:

1. *Buzruk – katta, ulug', buyuk*
2. *Rost – to'g'ri, chin, haqiqiy*
3. *Navo – kuy, mungli kuy, ishq kuyi*
4. *Dugoh – ikki o'rin, ikki joy, ikki parda*
5. *Segoh – uch o'rin, uch joy, uch parda*
6. *Iroq – ma'lum arab mamlakatining nomiga nisbat berilgan.*

Tasnif va tarji kuylari. Olti maqom tizimidagi har bir maqom ikki yirik bo'lim – cholg'u va aytm (ashula) yo'llaridan tarkib topishi aytilgan. Maqomlarning cholg'u kuylar bo'limi buxoro an'anasiga ko'ra mushkulot deb yuritiladi. Mazkur atama qiyinchiliklar ma'nosida kelib, jumladan, maqomlardagi bosh kuy-mavzuyini murakkabligi turlicha bo'lgan doira usullari sinovidan o'tishini va shu asnoda alohida qism va turkum miqyosida rivoj topishini ham anglatadi.

Shuni aytish kerakki, garchan maqom cholg'u kuylarining nomlari serjihat ma'nolar

kasb etsa-da, ularning deyarli barchasi maqomlar matnida eng avvalo doira usullarni anglatadi. Binobarin, gardun, muhammas yoki saqil deyilganda, birinchi navbatda, ma'lum doira usullari nazarda tutiladi. Maqomlarning mushkulot cholg'u bo'limlari tasnif nomli kuylar bilan boshlanadi.

Maqomlarning ma'nolar tizimi har bir maqomda o'zgacha tus kasb etarkan, u dastlab maqomning tasnif qismi boshlang'ich kuy tuzilmasida ilk bor ifoda etiladi. Odatda ushbu kuy mavzusi kichik hajmda, ammo nisbiy tugal shaklda bayon etiladi. Zero, maqom mavzulari timsolida umuman musiqiy mavzu tushunchasining beqiyos namunalari jonlanadiki, bunda buyuk ishq dardiga muhtalo qalblarning ruhiy holatlari go'yo nag'malarga muhr etilgan. Bu toifa musiqa mavzulari maqomdosh – sozanda (ashula yo'llari esa hofiz)larning malakali ijrolar jarayonida o'zining ruhiy-ma'naviy ta'sir, ko'lamini namoyon eta boshlaydi.

Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino o'zlarining risolalarida Sharq musiqa nazariyasini sharxlab, ayniqsa maqom masalalarini nazariy jihatidan asoslab berdilar va ularning asarlarida bu masala o'zining klassik ta'rifini topdi. Buyuk olimlarning maqom haqidagi izchil ta'limoti bu masalalarning yoritilishida XIII-XV asrlarda yashab ijod etgan musiqa nazariyachilari asarlari mazmununi aniqlab berdi. Bu hol Urmaviy, Sheroziy, Husayniy va Jomiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Al-Xorazmiy IX-X asr musiqa madaniyati tarixida O'rta Osiyodan chiqqan buyuk qomuschi olim. Uning asarlarida o'sha zamonlarda mavjud musiqa cholg'ulari to'liq tavsiflanadi va ularning har biri haqida mufasssal ma'lumot beriladi.

Umuman Sharq olimlari, dastlab musiqani ham falsafa ilmidan biri deb hisoblaganlar. Binobarin o'zlarining qomus tarzida yozilgan kitoblariga kiritganlar. Bunda ular, shubhasiz musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy-tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar. Musiqa ilmi bunda matematika fanlarining biri sifatida edi. Bunga sabab, musiqani tashkil etgan tovushlar bir-biriga nisbatan ma'lum nisbatda bo'lib, matematikadagi ba'zi qonun-qoidalar vositasi bilan tushuntiriladi edi. Dastlab, intervallarni tashkil etadigan tovushlar baland-pastligi darajasi torning uzun-qisqaligi bilan o'lchangan. Bunda tor qismlari geometriya yo'li bilan aniqlanib, uning ma'lum bo'laklaridan turli intervallar chiqarib olinadi. Masalan, ikkinci biriga nisbati (ya'ni ochiq torning yarmidan hosil etiladigan tovush uning o'ziga nisbatan) oktava darajasidagi intervalni tashkil etadi va matematikada 2:1 tarzida ifoda etiladi.

Shashmaqom asosan, Markaziy Osiyo o'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida yuksak o'rin tutgan maqomlar turkumi: parda, ohang, usul, shakl, uslubi kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar mavjud:

- *maqom yo'nalishlari;*
- *yalla (maqomot janri asosida yaratilgan yallalar);*
- *katta ashula;*
- *buxoro shashmaqomi;*
- *xorazm maqomlari;*
- *farg'ona-toshkent maqom yo'llari;*
- *o'zbek milliy maqom san'ati markazi.*



Asrorbek RO'ZIMATOV,
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI
“MILLIY QO'SHIQCHILIK” TA'LIM
YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAK POYDEVORI

Hammamizga ma'lumki, har bir davlat va jamiyatning shakllanishi, uning taraqqiyot bosqichiga chiqishi, muayyan yutuq va natijalarga erishishi, milliy va umuminsoniy qadriyat va an'analarini saqlab qolinishi, millat va ellatlarning tinch-totuv yashashi o'sha davlat va jamiyatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ertangi kuni uchun beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq.

Shuning uchun ham bugungi kunda bizning jonajon mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan e'tibor juda yuqori bo'lib, davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning birinchi imzolagan qonun hujjatlari 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam.

Shunday globallashuv jarayonlariga qaramasdan, davlatimizda biz yoshlarning huquq va erkinliklarimizni himoya qilish, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy tizimlar yaratilgan bo'lib, bu tizimlar hukumatimiz tomonidan zamon talablariga mos ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda. Bugungi kungacha parlamentimiz tomonidan yoshlarga oid qirqdan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, o'ttizdan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 30-iyun "Yoshlar kuni" munosabati bilan yo'llagan bayram tabriglarida ham keyingi olti yil mobaynida yoshlar har tomonlama qo'llab-quvvatlangani, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun davlatimiz tomonidan foizsiz kredit va subsidiyalar berilgani, yurtimizdagi

barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgani, mahallalarda bu tizim orqali yoshlarga yuzdan ortiq imkoniyatlar yaratilgani, "Yoshlar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib, so'nngi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb bir trillion so'mlik yordamlar ko'rsatilgani kata tashabbusdir. Jumladan, 53 ming nafar ehtiyojmand oilalarga mansub talabalarga o'qish uchun kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berilgani haqida ta'kidlab o'tganlari juda ham quvonarlidir. Ayniqsa, biz yoshlar hamda otalarimizning ham xursand qiladigan yana bitta quvonarli holatlardan biri shuki, oliy ta'lim muassasalarining soni salkam uch marta ko'payib, qamrov darajasi esa to'qqiz foizdan o'ttiz sakkiz foizga yetgani, oliy ta'limga va o'qishga topshirish to'liq elektron tizimga o'tgani, imtihonlarning shavfot o'tkazilayotganligi desak yangilishmagan bo'lamiz.

Umuman olganda, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, buyuk bobolarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bekdek yetuk insonlar avlodi bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun davlatimiz bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk,

jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois, Yangi O'zbekiston jamiyatining faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga "muammo" deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

"So'z isboti bilan" – deganlaridek, o'tgan 2023-yil mobaynida sevimli va go'zal institutimizning zukko, dono, har tomonlama yetuk talaba yoshlari juda katta yutuq va zafarlarga erishishdilar. Xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 4-dekabrdagi 516-sonli buyrug'iga ko'ra oliygohimizning to'rt nafar aqlli, lobar talaba qizlari: Ziyoda To'g'onboyeva va E'zoza Karimovalar "Navoiy" nomidagi davlat stipendianti, Rahmonova Dinara "Islom Karimov" nomidagi davlat stipendianti, Maratova Nilufar esa Prezident stipendiyasini qo'lga kiritdi. "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi Zohidjon Jumanazarov xalqaro IQ testida ishtirok etib, 200 ball eng yuqori natija qayd etib xalqaro reytingda 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Zohidjonning bu natijasini eshitgan madaniyat vaziri O.Nazarbekov 23-dekabrda bo'lib o'tgan "Vazir va yoshlar uchrashuvida" qahramonimizning oldiga kelib, "sen



**BAXTIYOR SAMIYEV,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI**

bilan rasmga tushsam bo'ladimi?" – degan fikrlari zaldagilarni quvontirib yubortirdi.

Dekabr oyida bo'lib o'tgan "Deb-yut-2023" talaba yoshlar festivalida "Eng yaxshi ayol roli" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni talabamiz Saida Valixo'jayeva qo'lga kiritdi. Albatta bunday yutuqlarimiz institutimiz rahbariyati va professor-o'qituvchilarimiz mehnatining natijasidir.

2024-yilga ham mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, biz kabi yoshlarni intellektual salohiyatini yanada oshirish, chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotini shakllantirish borasidagi ishlarni yangi va zamonaviy bosqichga ko'tarish kabi vazifalarni o'z ichiga olgan mazkur "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" yangi tashabbuslar, yangi innovatsion g'oyalar, eng muhimi yoshlar yili bo'lishiga ishonaman. Sababi, Yangi O'zbekiston bu – yoshlar kelajagidir.

KUTUBXONACHI



zamon bilan hamnafas bo'lmo'g'i lozim

Davrlar o'tishi bilan zamon ham kishilardan rivojlanish, tezkorlikni talab qilmoqda. Mamlakatimiz shahdam qadamlar bilan ildamlab borar ekan, kitob va kutubxonaning roli ortib bormoqda, bu esa o'z navbatida mamlakatda kutubxonaning yagona sistemalashgan tizimini shakllantirishni talab qiladi. Shu o'rinda kutubxonachilik sohasida ham yangilanish, zamon bilan hamnafas yashash uchun harakatlar kuzatilmoqda.

**DILDORA IRGASHEVA,
"KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI"
YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI**

Kutubxona ishida ham jamiyat faol bo'lsa, ilmga, yangilikka chanqoq bo'lsa, kutubxonada o'sish va rivojlanish bo'ladi. Kutubxonachilar ham "Qars ikki qo'ldan chiqadi", – degan xalq maqoliga amal qilgan holda harakat qilishlari lozim. Fondni boyitish, kitobxonlarning kerakli kitobga bo'lgan ehtiyojini tez va oson qondirilishi, yangi kitoblar targ'ibotini o'tkazish va hokozolar. Kutubxona faoliyatida har bir kutubxonachining yakuniy natijaga qo'shgan hissassini

aniqlash qiyin bo'lganligi uchun kutubxona jamoasini shakllantirish va malakali, o'z sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega kadrlarni ishga olish ahamiyatlidir.

XXI asrdagi axborot texnologik jarayonlari natijasida kelib chiqayotgan yangi talablar kutubxonachilar uchun bir qancha yangi malakaviy darajaga erishish vazifasini qo'ymoqda. Bularga nimalarni misol qilishimiz mumkin? Internet tarmog'idan samarali, tez va oson foydalanishni bilish. Axborot tizimidan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilar ekan, ularga kerakli ma'lumotni tez va oson topishga yordam berish. Ma'lumotlarni onlayn saralay bilish va qidira olish, kutubxona-axborot xizmati faoliyatini internet tarmog'i orqali targ'ib qila olish kabilardir.

"Kutubxonashunoslik" fakulteti dastlab 1974-yilda Toshkent davlat madaniyat instituti tarkibida tashkil qilingan. 2012-yilda kutubxonashunoslik sohasida kadrlar tayyorlovchi fakultet qisman yopildi. Toshkent davlat axborot texnologiyalari institutiga berilgach, madaniyat institutida kichik bo'lim hoida o'z ish faoliyatini davom ettira boshladi. 2019-yil 3-sentabrda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektorining 57/1-PO'Q sonli buyrug'i bilan "Kutubxona-axborot faoliyati" fakulteti tashkil topdi. Ushbu fakultetda hozirgi kunda har yili yuzdan ziyod kutubxonachi kadrlar yetishib chiqmoqda. Qolaversa, fakultetning bir qancha viloyatlarda filiallari tashkil qilingan bo'lib, bu so'nggi yillarda sohamizga e'tiborning yanada kuchayganidan dalolat beradi.

Yangi tashkil etilgan AKM va ARMLar oldiga qo'yilgan qator yangi vazifalarni amalga oshirish uchun AKM va ARM xodimlarining malakasini oshirish soha rivojlanishida kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb muammo bo'lib qoldi. Respublikamizdagi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashli ARM rahbarlari va mutaxassislar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti va Toshkent davlat axborot texnologiyalari universitetida 2007-yildan buyon maxsus tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida malakalarini oshiradilar.

2019-yil 3-sentabrda Xalq ta'limi vazirligiga qarashli maktablar tarkibidagi ARMLar rahbarlari va mutaxassislar malakasini oshirish Xalq ta'limi vazirligi va osiyo taraqqiyoti bankining "Maktab kutubxonalarini rivojlantirish" loyihasi doirasida amalga oshirilmogda.

Kutubxonachi rivojlanishi kerak, tezlik va sifat jihatdan o'sishi lozim deymiz-u lekin, unga mos sharoit qilib berilyaptimi? Kutubxonachilarning malaka oshirish muddati juda qisqa. Unda ham o'zimizning eski medotdlar yana qaytadan o'qitiladi, xolos. Hozirda barcha sohalarda chet el bilan hamkorlida ishlar olib borilmoqda, ularning ish yuritish sistemasi o'rganilib bizga mos tushadigan, qulay taraflari o'zlashtirilmoqda. Kutubxonachilik sohasida ham ushbu tizimni joriy qilib chet el kutubxonalari tizimini yosh xodimlar o'rganib, malaka oshirib kelishlari uchun sharoit yaratib berish lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning yetuk mutaxassisi ushbu jamiyatning muhim va kerakli a'zosisdir. Kutubxona – bilim beruvchi ezgu maskan. Kutubxonachilik sohasida yetuk kadrlar, yangilik, innovatsiyalarni olib kiradigan malakali kutubxonachilar taraqqiyot uchun hissa qo'shuvchilardir, desak mubolag'a bo'lmaydi.



Kelajakni aldamang

Bugungi kunda ko'plab insonlar tajribasi bo'lsa-bo'lmasa, kitob chop etishga shoshilyaptilar. Bu borada juda ko'pchilik menga murojaat qiladi. Albatta barcha ijodkorlarni bir yerga jamlash oson ish emas, g'ururlanadigan darajadagi ish ham emas. Shunchaki, adabiyot va ijodda tajribaga ega insonlar va tashkilotlar tomonidan rasmiy tarzda e'lon qilingan kitoblarni chop etish lozim.

Har bir ijodkor antologiya va almanaxlar orqali tanila boshlashi hech kimga sir emas. Ammo shunga munosib bosib o'tgan ijod yo'li, ishlari asarlari bo'lishi kerak. Ana shundagina ularni xalqaro va nufuzli respublika antologiyalariga taklif qilib chiqarishadi.

Ming afsuski, pul bo'lsa har kim chop etishga kirishdi. Buning yukini ko'tarish ham oson ish emas. Men ham izlanib, googlga murojaat qildim.

Antologiya (yun. Anthos – gul, lego – teraman) bir guruh mualliflarning tanlab olingan asarlari (musiqiy, falsafiy, adabiy) to'plami. Qadim zamonlarda Sharq va Yunonistonda ma'lum bo'lgan. Antalogiyaga kiritilgan asarlar biror shoir yoki xalqning badiiy ijodi haqida ma'lumot beradi, uning g'oyaviy-badiiy qimmatini ko'rsatadi.

Almanax (arab. – almunax: vaqt, kalendar) turli mualliflarning mavzu, janr va boshqa belgilarga ko'ra birlashtirilgan adabiy asarlari to'plami. O'rta asrlarda sharqda astronomiya kalendarlari almanax nomi bilan atalgan. Bundan tashqari, sharq adabiyotida zamondosh shoirlarning ijodlaridan namunalar yig'ib, "Bayoz"lar ham tuzilganki, ularni ham almanaxlarning mukammal shakli deb baholash mumkin.

XVII-XVIII-asrlardan Yevropada ham shunday almanaxlarlar nashr

etila boshlagan, lekin qiziqarli bo'lishi uchun ularga kichik-kichik badiiy asarlar (hikoya, she'r, latifalar) ham kiritilgan, shu tariqa, almanax hozirgi ma'nosiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda ham almanaxlar nashr etib turiladi, masalan: "Armug'on", "Zafar", "Guldasta", "Yoshlik" h.q.). Shunday ekan qanchalik mukammal, sermahsul ijod qilayotgan ustoz va havaskorlarni bir to'plamga jamlashning yomon tarafi bo'lmasada, shoshqaloqlik bilan faqat pul uchun chop etilgan kitoblarning umri qisqa bo'lishini, el nazariga tushmasligini, keng ommaga tarqatilmashligini aytib o'tmoqchiman.



Adabiyotga hissa qo'shaman deb sayoz materiallarni taqdim etib, meni ham vijdonim qiynalib, bir vaqtlar boshlagan shu kabi ishlarimni yakunladim.

To'rt qator she'rni mazmun-mohiyatini tushunib yoza olmaganlar ham to'plam uchun harakat qilar ekan, bu bizning jar yoqasiga kelib qolganimizni hamda kim o'zarga "Men zo'rman" – deya o'yin o'ynayotganlarini bildiradi.

Jamiyatda shoir, yozuvchi va san'atkor bo'lgan, – degan yoshlarga ustozlik qilib yo'l ko'rsatadigan insonlar bo'lmaganidan har kim o'z holicha duch kelgan ishga o'zini ura boshladi. Ustoz-shogirdlik an'analari tiklanmas ekan, yoshlar yo'lini topa olmaydi. Tajriba – deya yirik kitoblarga qo'l urushlari bu muammo emas, asl muammo yuzaki yozadiganlar pul evaziga yig'ilib qolishidir.

Targ'ibotchi yoshlarga bu borada



**ZILOLABONU XOLIQOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINITASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 4-BOSQICH TALABASI**

ko'nikma, ilm berib faoliyatlarida ko'mak bera oladigan ustozlar topilsa, ularning yutug'i. Keng ommaga taqdim etilishi kerak bo'lgan har bir chop etiladigan "Bayoz" to'plamlari jiddiy tekshiruvdan o'tib muhokama qilinmas ekan, ular nomi ulug', supراسi quruqligicha qoladi.

Rasmiy tashkilotlar, markazlar tomonidan chop etilganda ham, talay kamchiliklar bilan nashr etilgani uchun ham, bugun almanax va antologiyalarning qadri pasayib ketdi. Nashriyotlar xususiyli, kitobni biznesga aylantirishgani ham bunga sabab bo'lmoqda. O'ylardimki, adabiy jarayonlarda oqsagan muhitni yaxshilash uchun chora tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Asar haqida...

Mazkur asar Turkistonning zulmat va tanazzulga yuz tutgan uch tarixiy davri va ushbu davrning qurboniga aylangan. Uch avlodning taqdiri haqidagi ushbu asar g'oyasi nihoyatda teran va chuqur yoritilgan. Asarni qayta-qayta o'qilishi hamda undagi har bir datalning shu davr muhiti uchun ahamiyati benihoya kattadir. Shuning uchun ham asardagi barcha obrazlar tilidan aytilgan so'zlarning ma'nosi, har bir satrining o'ziga xos mazmuni bor...

Asar g'oyasi: jamiyatimizda bo'layotgan barcha katta-kichik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ushbu davlatda yashayotgan insonlar taqdiri uchun benihoya ta'sir etish kuchi kattadir. Davlat siyosatida ish olib borayotgan rahbarlar biror-bir tuzumning ustidagina emas balki, shu davlatda yashayotgan million-million aholining taqdiri ustidan ham bevosita ish olib borayotganliklarini har lahzada his etib, anglab yetmoqliklari darkor. Zero, asar qahramonlarining ayanchli taqdirleri va boshidan o'tkazgan barcha mushkulliklarining ham asl sabablari ma'lum bo'ladi.

Asarda biror-bir narsani o'zgartirish uchun harakat qilib, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish ham hech gap emasligi, ammo buning uchun begunoh va ushbu voqea-hodisalarni to'liq anglab yetmaydigan sodda xalq badal to'lashi to'liq namoyon etilgan. Davr qurbonlari bo'lmish Jamoliddin, Aqrab va Dehqonqul kabi zahmatkash kishilar, ularning ayollari bo'lmish Guljamol, Bolxinoy va ularning farzandlari taqdiri o'sha davr siyosatining adolatsiz va jirkanch ekanligidan dalolat beradi.


Mazkur asarni o'n ikki yoshdan katta bo'lgan barcha insonlar o'qishlari mumkin. Asar tili bir ko'rishda

shevada yozilgandek ko'rinishi mumkin, lekin o'qishni boshlagandan so'ng, she'r kabi o'qiladi va oson tushuniladi. Asarda qo'llanilgan maqollar va matallar hattoki she'rlar ham ushbu davrni yanada yaxshiroq tasvirlashga katta yordam beradidi. Ayniqsa asardagi diniy so'zlarni ham ta'qiqlash ushbu zamonda dinga ham cheklovlarning qo'llanilganini ko'rsatadi.

Mehnatkash o'zbek xalqining yerga mehr qo'yishi hamda gullatishga harakat qilishi, yerni ham muqaddas sanab asrab-avaylashi, qalb qo'rini

bag'ishlashi asarda o'ziga xos tasvirlangan. Asar badiiyligi shu qadar kuchliki, uni o'qib ba'zan yig'lab, ba'zan kulib, ba'zan jirkanib ketasan kishi. Men ushbu asarni o'qib, Tog'ay Murodga bo'lgan mehrim, asarlariga va ijodiga bo'lgan muhabbatim yanada alanga oldi. Yozuvchi soda, ravon va yorqin tasvirlagan voqealar ko'z oldimizda xuddi, kino lentasidek o'tadi, ko'z oldimizda barcha hodisalar jonlanadi. Bu yuksak mahorat. O'quvchini asar ichida yashatish uchun yozuvchi bularni o'z boshidan o'tkazgan bo'lmog'i kerak. Kimgadir nimanidir his ettirish uchun ham, avvalo o'zimiz shuni his etgan bo'lishimiz lozim.

Asarni bugungi kishilar, yoshlar o'qimoqliklari darkor. Zero, asar kishining har davrda ogohlikka, bo'layotgan o'zgarishlarga va islohotlarga befarq bo'lmaslikka, uyg'oq va sergak bo'lmoqlikka chorlaydi. Yozuvchi o'zi baralla ayta olmagan so'zlarini xuddi jadidlarimiz singari o'z asarining qahramonlari tilidan aytadi, hayqiradi va chaqiradi.



**XAFIZA ALIBEKOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

Hatto o'zbek ayollarining huquqlari poymol etilishi, ularning faqatgina mehnat bilan ezilishi, ayollik g'ururlarining ezilishi ham yorqin tasvirlab berilgan. Shoir va yozuvchilarning asarlariga qo'yilgan senzura va turli cheklovlar ham ko'rsatilgan, hattoki kishilar aytajak so'zlaridan ham qo'rqadilar. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, asarni o'qimoqlik, anglamoliqlik va fikr yuritmoqlik kerak. Zotan, anglash – yashashdir. Asarda bir shoir tilidan aytilganidek: "Mehnatkash xalqim, zahmatkash xalqim farzandlari o'qi!"



Mag'rurlik

Sening jussang shu shaharga mos,
Tugamaydi sira ishlaring.
Jilmayasan mashhurlarga xos,
Ko'rsatgancha tilla tishlaring.

Otiladi bag'ringdan she'ring,
Sog'inch haqda yozasan har dam.
O'y surasan shirindan-shirin
Salqingina xiyobonlarda.

Qishloq senga begonaday gap,
Yilda bir bor yo'qlab kelmaysan.
Qoshlariga o'smalar qo'ygan
Sanamlarni pisand qilmaysan.

Keng quchog'in ochar hamyoning,
Saxiyliging ko'rsatging kelar.
Pul sarflaysan achimay joning,
Bir qiz senga chiroyli kular.

Sen yashaysan o'z g'amingni yeb,
Birov senga parvo qilmaydi.
Dehqon otang esa senga deb
Kecha-kunduz tinim bilmaydi.

Oqil ABDUBARNOYEV



Go'zal qiz!

O'ltiribman o'ylanib,
Bir ko'ray deb shaylanib,
Yurakka ishq joylanib,
Sevdim, sizni go'zal qiz!

Tunlar bedor bo'laman,
Ishq o'tida yonaman,
Sog'inchlarda so'naman,
Sevdim, sizni go'zal qiz!

Bir bor tinglang so'zlarim,
Yo'lingizda ko'zlarim,
Har qadamda izladim,
Sevdim, sizni go'zal qiz!

Bir bor qiyo boqmaysiz,
Oshiq qalbin toptaysiz,
Ayting, nima xohlaysiz?
Sevdim, sizni go'zal qiz!

Sevgim anglab yetarsiz,
Dardim anglab yetarsiz,
Siz ham bir kun sevarsiz,
Sevdim, sizni go'zal qiz!

Mirjalol MIRSAVLATOV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi



Odamiylik bor

Bu hayotda yog'masmidi qor?!
Ko'klammi har dam ham bahor
Hayotning sinovi sinamas zinhor,
Insonga insondek boqqanda bir bor,
Biz odammiz-ku, odamiylik bor.

Charchasa kimdir horib yo'lidan,
Begonamas tuting borib qo'lidan,
Alloh bermasa gar o'ngu-so'lidan,
Inson bor insonga har dam madadkor,
Biz odammiz-ku, odamiylik bor.

Ezsa hayot yigit bardoshi to'ladi,
Yaxshi inson ko'ngliga qo'l solidi,
Yaxshi ishlar doim mangu qoladi,
Inson bor insonni eslab bir bor,
Biz odammiz-ku, odamiylik bor.

Ertani o'ylamang kelib qoladi,
Ertangiz bugundan go'zal bo'ladi,
Insonning yuziga inson soladi,
G'olibning so'zlarin eslab bir bor,
Biz odammiz-ku, odamiylik bor.

G'olib MELIBOYEV,
"Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi



Komillik sari

Shamoldayin tez o'tar umr,
Qadriga yetaylik har vaqt,
Na jonzotlar, tirik jon qolur,
Ketganlar bor, dunyodan bevaqt.

Shiddat ko'rsat qolsinlar hayron,
Yuksak bilim natijalaring,
Ko'rolmaslar dillari vayron,
Bilmaydida, bedor tunlaring.

Zahrin sochar senga ayamay,
Sen ularga xayoling buzma,
Olg'a borgin ortga qaramay,
Nopok fikr-u, rejalar tuzma.

Shijoat qil, komillik sari,
Zinhor qaytma, olg'a bos qadam,
Shunda yovlar bo'lgaydir nari,
Oilang, yoring sen bilan har dam.

Jamshid UMRZOQOV,
Urganch davlat universiteti
2-bosqich talabasi

Jahongir SOBIRJONOV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi



Sukunat

Bog'larni kezaman, atrof sokinlik,
Men undan keladi ilhom so'ragim,
Naqadar yoqadi, go'zal bu kenglik,
Nenidir so'zlamog' bo'lar yuragim.

Ilhomim yetaklar qirlar, chamanga,
Hayolim ko'chasi bilmas nihoya,
Sodiq o'g'lon bo'ldim, shunday vatanga,
Umrim bo'yi uni qilgum himoya.

Oqshom nur sochadi kulib to'lin oy,
Xandon otar go'yo ko'kda oy yuzlar,
Sokinlik qo'shig'in kuylar hoynahoy,
Meni maftun qilgan o'sha yulduzlar.



O'zbek alifbosini isloh qilish payti keldi

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini isloh qilish masalasi yana kun tartibiga chiqmoqda. Mana, bir necha yildan buyon bu haqda o'zbek ziyolilari o'rtasida bahs-munozaralar tinmayapti. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Qodir Jo'raevning telegram kanalidagi ayrim postlarini lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozib kelmoqda. Quyidagi suhbatimiz shu haqda.

– Siz o'z telegram kanaligizda ([//t.me/qodirdjuraev](https://t.me/qodirdjuraev)) ayrim postlaringizni noan'anaviy uslubda, ya'ni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining yangicha variantida yozasiz. Bu qonunga zid emasmi?

– Siz aytayotgan qonun, ya'ni “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bundan 31 yil oldin, 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yil 6-maydagi boshqa bir qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan. Men mana shu o'zgartirishlarni noto'g'ri kiritilgan, deb hisoblayman.

– Nima uchun 1995 yilda o'zgartirishlar kiritilgan va bu qanday o'zgartirishlar edi?

– Sabablari noma'lum. O'shanda Ç ç, Ğ ğ, Ş ş, kabi muhim harflar alfavitdan tushunarsiz ravishda chiqarib tashlangan.

– Demak, siz lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini isloh qilish va 1993-yilgi variantiga qaytish tarafdorisiz, to'g'rimi?

– Ha, asosan shunday. Buni faqat men emas, ko'pchilik olimlar va ziyolilar taklif qilyapti. Yaqinda jadid bobolarimizning ilmiy-ma'naviy merosiga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyada S.Mirziyoeva ham xuddi shu mazmunda, ya'ni “alifbodagi ayrim o'zgarishlarni joriy etib, shu bilan alifbo masalasiga qat'iy nuqta qo'yishimiz zarurligi” haqida gapirdi.

– Qanday o'zgartirishlar kiritishni muhim, deb hisoblaysiz?

– Taklif etilayotgan o'zgartirishlar uncha ko'p emas. Asosan, ikkita belgidan iborat – O'o', G'g', Chch, Shsh tovushlarini 1 ta harf bilan, ya'ni Ōō, Ğğ, Çç, Ş ş tarzida yozish taklif etilmoqda.

– Bu qanday amalga oshiriladi?

– Bu “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

– Agar shu 4 ta harf isloh qilinadigan bo'lsa, kelgusida moliyaviy xarajatlarning ko'payishiga olib kelmaydimi? Bosmaxonada harflarni almashtirish, maktab darsliklari va o'quv adabiyotlarini qayta nashr etish, mutaxassislarni o'qitish va hokazo... Bularning hammasi mablag' talab qiladi-ku?!

– Ha, to'g'ri. Qisqa muddatli strategiyada bir martalik xarajatlar bo'ladi, albatta. Biroq, fikrimcha, uzoq muddatli strategiyada bu o'zgartirishlar biz uchun har tomonlama foydali. Chunki biz 1 ta tovushni 2 ta harf bilan emas, balki 1 ta harf bilan yozishga o'tamiz. Bu esa ham vaqtini tejaydi, ham mablag'ni.

– Sizga katta rahmat. O'ylaymizki, ona tilimizga befarq bo'lmagan yurtdoshlarimiz, xususan, ziyolilarimiz sizning alifbomiz islohoti yuzasidan taklifingizga o'z munosabatlarini bildiradilar.

Hayot haqiqatlari

Kitoblarda yo'q narsaning o'zi yo'q



“Men bir narsaga hayron bo'laveraman. Qachon qaramang, to'rtta odam yig'lsa, farzand tarbiyasining og'irligi, ularni odam qilishning azoblighi to'g'risidagi hasratga duch kelamiz. Hoy birodarlar, buning eng oson, eng arzon, eng samarali yo'li, usuli shundoq yoningizda turibdi-ku: bolangizni kitob o'qishga o'rgating, uning ko'nglida badiiy adabiyotga mehr va muhabbat uyg'oting, farzandlaringizga uch-to'rt so'mni qizg'onmay muntazam kitob olib bering! Zero, dunyoda kitobdan ham aqlliyoq, undan ham donoroq biror ustozni topib bo'ladimi? Axir kitoblarda yo'q narsaning o'zi yo'q-ku! Odamni odam qiladigan jamiki kuch-qudrat, hikmat, go'zallik, aql va odob kitoblarda “mana-man” deb turibdi-ku! Nahotki, bu buyuk ne'matdan, bebaho boylikdan bebahra bo'lib ham odam bo'lish mumkin, – deb o'ylasangiz?!”

Angliya hamda Shotlandiyadagi o'nlab universitetlarning faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan adib “yuksak darajada hikoya qilish mahorati” uchun berilgan Nobel mukofotining o'sha davr uchun juda katta bo'lgan pul mablag'ini o'zi tashkil etgan Penklubga beg'araz taqdim etdi. Bunga qadar esa Golsuorsi faxriy ritsarlik unvonidan ham voz kechgandi. Zero, Golsuorsi yozuvchilar va islohotchilar mukofot olmay ishlashlari kerak, degan prinsipiga sodiq edi.

Bundan tashqari dramaturg, shoir Golsuorsi (1867-1933-yillar, Buyuk Britaniya) asarlari chop etilishidan tushgan daromadning teng yarmini xayriyaga sarflardi. Shuningdek, yozuvchi umr bo'yi ijtimoiy islohotlar, chunonchi, senzura haqidagi qonunni qayta ko'rib chiqish, eng kam ish haqi miqdorini oshirish, ayollarga saylov huquqi berish tarafdori bo'lib o'tdi.

Adib o'quvchi yuragiga yo'l “hayotni o'zing ko'rayotgandek, haqqoniy va mukammallikka intilib tasvirlashda”, deb hisoblardi. E'tirof etaylik, Golsuorsi bu yo'lni topdi. Uning ijodi hatto Buyuk Britaniya bosh

vaziriga katta ta'sir ko'rsatdi, ya'ni Golsuorsining bir kishilik bandixona uqubatlari tasvirlangan “Adolat” nomli pyesasini o'qib chiqqan Uinston Cherkhill qamoqxonalarda bo'yicha jiddiy islohotlar o'tkazdi.

Hayoti mobaynida 20 ta roman, 27 ta pyesa, 3 ta she'rlar to'plami, ikki yuzga yaqin hikoyalarni chop ettirgan. Birinchi jahon urushi davrida o'z ixtiyoriga ko'ra Fransiyadagi harbiy gospitalda oddiy sanitar bo'lib ishlagan yozuvchining xotini ingliz adiblari jamiyati Vestminster abbatligining mashhur adiblar abadiy qo'nim topgan shoirlar burchagiga dafn etish iltimosi bilan chiqdi. Biroq abbatlik bosh ruhoniysi bu taklifga ko'nmadi, cherkov shu yo'l bilan o'zini tanqid qilgan qalamkashdan o'ch oldi.

Ana shunda Jon Golsuorsining “Xokimni shamolda to'zg'iting!” degan mashhur she'ri yodga tushdi va adibning xoki o'ynoqi shamollar bag'ridagi yuksak tepalikdan, ayrim manbalarda samolyotdan – sochib yuborildi.



G'arbiy Sasseks, Angliya.
(1864—1956)larda yozuvchi Jon Galsvorsining ijod qilgan uyi.



Bular biznikilar...

Bir voqeani o'qidimu o'zim guvohi bo'lgan voqealar birin-ketin ko'z oldimdan o'tdi: samolyotga chiqishda kim o'zarga yuguriladi; samolyot erga qo'nmasdan turib hamma o'rnidan turib oladi, xuddiki birinchi tushmasa samolyotda qolib ketadigandek. Xorijdagi eng katta aeroportlardan biridaman. Minglab odamlar bor. Barcha sokinlik bilan tartib asosida harakatlanadi. Lekin bitta terminaldan baland ovozda g'ala-g'ovur (so'kinishlar ham) tinmaydi... Bular biznikilar...

Biz navbat nima ekanini bilmaymiz. Hamma birinchi bo'lishni xohlaydi va afsuski, aynan shu tuzalmas kasalimiz taraqqiy etishimizning eng katta dushmani.

Ushbu voqeani ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qildik, lekin kimlargadir ibrat bo'lar degan maqsadda sizlarga ham ulashgimiz keldi.

"Men ish va turmush o'rtog'im sababli Xyus-tonda(Texas, AQSh) yashayman. O'tgan hafta men bilan qiziqarli va ta'sirli voqea uyimga yaqin joylashgan pochta bo'limida sodir bo'ldi.

Yangi yil sovg'asi sifatida internet orqali sotib olgan qo'l soatim qutisidan oynasi singan holda chiqqanidan so'ng, darhol qaytarib berish varaqasini to'ldirib, pochta bo'limiga bordim. Pochtaga kirganimda 20-25 kishi navbatda turishgandi. Bu erda "Rojdestvo" bayrami yaqinlashayotgani uchun bozordan bir bo'lak non sotib olmoqchi bo'lsangiz ham o'nlab odamlar ortidan saf tortib, odatdagidan ancha uzoq kutishingizga to'g'ri keladi. Atigi 2 kishi xizmat qilayotganda, ayniqsa, yuzi charchagan, ishlashga toqati qolmagan holda ishlayotgan bo'lsa, kutish vaqti sabr-toqatni yanada toshiradi.

Men kirgan navbatda orqaga burilib qarasam, yana 30-35 kishi turganini ko'rdim. "Ha, mayli, hech bo'lmaganda o'rtadaman-ku", deb o'zimni ovutdim.

Oradan roppa-rosa 40 daqiqa o'tib, menga navbat keldi. Men paketni pochta xodimiga berib: "Unda manzillar yozilgan", dedim. "Nega paketni lenta bilan muhrlamadingiz?" deb so'radi xonim. Unga javoban kirish joyidagi "Paket tarkibini ko'rishni xohlashimiz mumkin. Iltimos, paketlaringizni ochiq tuting", degan ogohlantirish yozuvini ko'rsatdim.

Xodim ovozi bilan baland qilib, jahl bilan: "Men eshikda nima yozilganini juda yaxshi bilaman, paketingizni zudlik bilan lentalang", dedi. Navbatdagilarning hammasi bizni tinglab turgan edi. Xodimning yonidagi lentani ko'rsatib: "Shuni bera olasizmi, iltimos?" dedim. Pochta xodimi yana o'sha baland ovoz bilan javob qaytardi: "Yo'q, bu lenta meniki, mijoz o'z lentasidan foydalanadi!". "Yonimda hech qanday lenta yo'q, lentangizning pulini beray..." desam, mas'ul xonim ovozi bilan yanada balandlatdi. O'n fut narida qadoqlash xizmatlari uchun tayyorlangan poyabzal qutisi o'lchamidagi 20 dollarlik lentani ko'rsatdi va uni sotib olishimni buyurdi. "Sizningcha 15 santimetrlilik quti uchun shu lentani sotib olishim mantiqdanmi?" deb so'radim. "Lentani oling va darhol navbatning

oxiriga boring!" Xonim qichqirarkan, jahldan qizarib ketdi. Xuddi shu g'azab bilan navbatda turgan keyingi odamni "Nekst!"("Keyingi!") deb baqirib chaqirdi.

Shu payt qotib qoldim...

Chunki navbatda hech kim oldinga siljimadi. Navbatning boshida turgan odam: "Zudlik bilan qutini lenta bilan yopishtiring va birinchi navbatda xonimning ishini bitiring", dedi. Pochta xodimi jahl bilan yana qichqirdi: "Nekst!!!"

Ammo 30 kishidan birontasi joyidan jilmadi. Ikkinchi pochta xodimining ham oldiga hech kim bormadi. Xizmat to'xtatildi.

Bir kampir: "Men 76 yoshdaman, tizzalarim og'riyapti, lekin shu xonimning paketini lentalar, burchingizni bajarmasangiz, bu erdan bir qadam ham jilmayman", dedi. Pochta xodimi jahl bilan qo'limdan paketni tortib oldi, yonidagi pochta lentasi bilan qutini lentalaradi.

Toki to'lovimni olmaguncha, men aralash histuyg'ular ichida qoldim, deyarli yig'lashgacha bordim.

Navbatdagilarga "Hammingizga rahmat" deyishimdan boshqa so'z topolmadim... Ular jilmayib qo'l silkitishdi.

Ko'chaga chiqib, mashinamga o'tirib, bir muddat o'ylab qoldim. Hammaning ishi bor. Nimaga "shoshilyapman" deb birorta ham odam navbatda siljimadi? Bir kishiga nisbatan adolatsizlikka shuncha odam xuddi kelishib olgandek qarshilik qildi-ya?

Shu payt mendan keyin turgan odam ham ishini tugatib, tashqariga chiqdi. U mening mashinamga yaqinlashdi, men oynani ochdim. U tabassum qildi va ko'nglimdagi savollarga javob berdi: "Sizga qilingan xato uchun uzr so'rayman. Tabiatda hayvonlar, daraxtlar va hatto mikroblar bir-biri bilan bog'lanib harakat qilsa, aksincha, biz odamlar bir-birimizdan juda uzilganmiz. Agar xato darhol aniqlansa va unga jamoaviy reaksiya qilinsa, o'sha xato takrorlanmaydi. O'sha xodim keyingi safar xato qilishdan oldin ikki marta o'ylaydi. Biz vazifamizni bajardik. Yangi yilingiz bilan!.."

Hurmat bilan MEHRIBONU.

Milliy merosga mening hissam

Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyida "Milliy merosga mening hissam" deb nomlangan umumxalq aksiyasi doirasida aholidan sotib olingan va tuhfa sifatida qabul qilingan qirqdan ortiq ijod namunalardan tashkil topgan ko'rgazma ochildi.

Ushbu ko'rgazma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-mayda qabul qilingan "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tashkil qilindi.

Ekspozitsiyadan "yuksalish", "zarvaraq", "surnaychi", "sevishganlar", "jang", "uch darvesh", "shoxnoma", "dutorchi", "turon arsloni", "lagan-patnos", "Xam-sanavislari", "Alisher Navoiy Husayn Boyqaro", "Alisher Navoiyning "Hayrat-ul Abror" dostoniga ishlagan miniatyura "Zahiriddin Muhammad Bobur", "Bobur Hind qush tog'ida", "Bahouddin Naqshbandiy shiori" kabi ijod namunalari o'rin olgan.



Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, miniatyura, xattotlik, naqqoshlik hamda amaliy san'at asarlari bilan fondni bo'yitishga e'tibor qaratilmoqda.

Muzey "Milliy merosga mening hissam" umumxalq aksiyasi doirasida muzeyning fondi 33 ta miniatyura, 8 ta xattotlik va 2 ta amaliy san'at asarlari bilan boyitildi.

Abdulla Qahhor hikmatlaridan

- ✓ Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'q!
- ✓ Odamlarki bor, bisotidagi bir hovuch so'zni aylantirib oyligini olaveradi; o'qish-o'rganish bilan o'zbek tilining imkoniyatidan to'laroq foydalanishni istamaydi yoki bunga farosati etmaydi. Mana shunaqa odamlarning dangasaligi yoki farosatsizligi, chalamulla olimlarning "ilmiy faoliyati" oqibatida shunday bir til vujudga kelganki, na muomalada, na oilada, na suhbatda hech kim bu tilda gapirmaydi; na oshiq ma'shuqasiga, na ota bolasiga, na bola onasiga bu tilda xat yozadi... Bu tilni faqat mikrofon ko'taradi. Bunga faqat mikrofon toqat qiladi.
- ✓ Bizning matbuot va radio tili nima uchun kundankun xalq tilidan uzoqlashib bormoqda? Nima uchun tilimizning qonun-qoidalarini buzilayotibdi? Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir
Ma'rufjon YO'LDOSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsml.uz;
nashriyot@dsml.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 1.02.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta o'ynig oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz –1.